



## YURTIMIZDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KORXONALARDA BOSHQARUV HISOBINING HOLATI VA MUAMMOLARI

**Mirjamolova Xilola Abdimajit qizi**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Magistri

Ilmiy rahbar: **N. B. Abdusalomova**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

e-mail: [mirzhamolovahilola@gmail.com](mailto:mirzhamolovahilola@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy izlanish orqali biz hozirda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonaladagi asosiy vazifalaridan biri bo'lmish boshqaruv hisobini yuritishdagi ba'zi muammolarni ko'rib chiqdik va ularga o'z fikr doiramizda xulosalar berib, takliflar kiritdik.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv hisobi, menejment, axborot tizimi, korxonalar, rahbarlar, menejerlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.

**Аннотация:** В ходе этого научного исследования мы рассмотрели некоторые проблемы управленческого учета, которые в настоящее время являются одной из его основных задач на предприятии, действующем в нашей стране, и внесли в них предложения, сделав выводы в рамках нашего мышления.

**Ключевые слова:** Управленческий учет, менеджмент, информационная система, предприятия, руководители, менеджеры, хозяйствующие субъекты.



**Abstract:** Through this scientific research, we examined some problems in maintaining management accounting, one of the main tasks of the enterprise currently operating in our country, and made suggestions to them, giving conclusions in our framework of thought.

**Key words:** Management Accounting, Management, Information System, enterprises, managers, managers, business entities.

Boshqaruv hisobi har bir korxonaning axborot tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyatining samaradorligi asosan korxonaning tarkibiy qismlari, ichki tuzilmalari va bo'linmalari ish jarayonidan olinadigan tezkor ma'lumotlarga bog'liq. Boshqaruv hisobi bu olingan operativ ma'lumotlarni korxona boshqaruvi to'g'ri qarorlarini qabul chiqarish uchun turli darajadagi boshqaruvchilar uchun shakllantiriladi.

Boshqaruv hisobini tashkillashtirish korxona raxbarlari zimmasidagi muhim vazifa bo'lganligi sababli, raxbar ushbu hisobni korxona maqsadlariga yo'naltirgan holda tashkillashtirishi, vaziyatga qarab lozim bo'lsa unga qo'shimchalar kiritish yoki ba'zi joylarini o'zgartishi mumkin. Boshqaruv hisobini har bir korxona o'z maqsad va imkoniyatlaridan kelib chiqqan haolda turli xil ko'rinishda yuritishi mumkin.

Ma'lumki har qanday ish maqsadsiz va re'jasiz boshlansa, bu ishning oxiri noma'lum, korxona faoliyatini esa bankrot holatiga olib borib qo'yadi. Shunday ekan boshqaruv hisobini yuritish avvalo korxona rahbarining qiziqishi bo'lishi lozim. Ko'pchilik korxonalarda buxgalteriya tashkiliy masalalarga va hatto ba'zan boshqaruvga ham javobgar hisoblanadi. Bu esa o'z ustiga ko'p mas'uliyat ortib olgan buxgalterga qiyinchilik tug'diradi, va ishning orqaga ketishiga turtki bo'ladi. Masalan, bugalter korxonaning oldingi va hozirga faoliyatlari natijalarini va faoliyatning o'sish yoki tushish dinamikasini boshqaruv qo'lida bo'lgan shaxsga topshirsa, ushbu boshqaruvchi, o'z bilim va ko'nikmalariga tayangan holda, boshqaruv qarorlari asosida, korxonaning strategik reja



va maqsadlarini aniq qilib qo'yib bera oladi. Buni biz qurilish mollari ishlab chiqarish korxonasi misolida aytadigan bo'lsak, agar raxbar buxgalterga kelasi oy foydani ko'paytirish kerak desa, bunday holatda hisobchi o'z imkoniyatidan kelib chiqib kelasi oyga maxsulot vaznini kamaytirish orqali sonini ko'paytirish va tushumni ko'paytirishi mumkin. Lekin har qanday boshqaruv qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar bunday mas'uliyatli ishni o'z darajasida bajarishi lozim. Aks holda sifat tushgan maxsulotni kelasi gal ko'pchilik solib olmasligi yoki olgan bo'lsada qaytarib berish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi – mamlakatimizda boshqaruv hisobini takomillashtirish konsepsiyasini rivojlantirish orqali yurtimizdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlash jarayonini har bir hodim, va boshqaruv raxbarlariga ochiq va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlar va ko'rsatmalar orqali ularning faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarayotgan maxsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarini dunyo talablari darajasiga olib chiqish va oldindan kutilmagan muammolarni bartaraf etish va o'z vaqtida va o'z o'rnida hal qilish.

Yurtimizda hozirda olib borilayotgan boshqaruv hisobining asosiy muammolarini quyidagicha tassiflash mumkin:

**Kadrlar yoki kadrlarining malakasi yetishmovchiligi** : ma'lumki, kuchli saviyaga ega mutaxassislarning yetishmasligi yoki mavjud xodimlarning bilim darajasi va ularning tajribalari hozirgi davr talablar darajasida emasligi korxona boshqaruv hisobining sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hozirda ko'p korxonalarda yangi ilg'or texnologiyalar va xalqaro standartlarni biladigan, innovatsion hisob tizimlarini joriy etish ko'nikmalariga ega kadrlar yetarli emas.

**Hisob yuritishda avtomatlashtirish darajasining pastligi**: Ko'pgina korxonalarda buxgalteriya hisob-kitobi hozirgacha qo'lda yoki eskirgan tizimlarda yuritiladi. Bu esa vaqt va resurslarni behuda ketishiga va xatolarning ortish ehtimolini oshiradi.



**Ichki standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirilish:** O'zbekistonda erkin iqtisodiyot yuritilishi sababli, boshqaruv hisobi yuritishda xalqaro standartlarni o'rganish va o'zimizga moslashtirish va amalda tadbir qilish talab etiladi. Bu esa chet el kompaniyalar bilan hamkorlikni osonlashtiradi, ammo ko'pchilik korxonalar hali bunga moslashgan emas.

**Tahlil va prognoz qilishning sustligi:** Boshqaruv hisobi o'z nomiga xos bo'lishi va u korxonaning aynan boshqaruvi uchun xizmat qilishi va uning kelajagini yanada rivoji uchun hissa qo'shishi lozim. Lekin afsuski, hozirda bu hisob ham shunchaki raqamlar bilan cheklanib qolib, korxona uchun biror naf keltirmayapti. Aksincha boshqaruv hisobi korxona uchun juda ham muhim hisoblardan bo'lib, u o'z ichiga hozirgi holatini tahlil qilish va kelajagini prognoz qilishni ham o'z ichiga olishi zarur. Afsuski, ko'pgina korxonalarda bu hisob hali ham amaliyot to'liq tadbir qilinmagan.

**Buxgalteriya axborotining yetarli darajada oshkor qilinmasligi:** buxgalteriya boshqaruv hisobida foydalanish uchun rahbariyatga barcha zarur bo'lgan va to'liq ma'lumotlarni berishi lozim. Ammo, ba'zida moliyaviy ma'lumotlarning noto'g'ri yoki to'liq bo'lmasligi kuzatiladi.

**Korxona faoliyatida moliyaviy va boshqaruv hisobining ajralib qolishi:** aksariyat hollarda raxbarlar moliyaviy hisobga katta e'tibor qaratib, boshqaruv hisobi esa ikkinchi darajada qolib ketadi. Bu esa keytinchalik axborot olish imkonini cheklaydi va qaror qabul qilish jarayonini qiyinlashtiradi yoki xatoliklar yuzaga keltiradi.

**Boshqaruv hisobi bo'yicha yurtimizda normativ-huquqiy bazaning yaxshi rivojlanmaganligi:** Aynan man shu maummo bizning ilmiy izlanish olib borishimizga turtki bo'ldi. Yurtimizda faoliyat olib borayotga ko'p korxonalarda boshqaruv hisobiga oid qonuniy va normativ hujjatlar ishlab chiqilmagan yoki ularning amaliyoti noma'lum.



**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar raxbariyati uning faoliyati rivoji uchun boshqaruv hisobini tashkillashtirishi va uni doimiy ravishda yangilab borishi juda ham muhimdir. Biz yuqorida aynan shu boradagi muammolarni ko'rib chiqdik. Ushbu muammolarni hal qilish uchun esa quyidagi yo'nalishlarda islohotlar o'tkazish mumkin:

- **Kadrlar tayyorlashni rivojlantirish** va zamonaviy boshqaruv hisobiga oid kurslarni taqdim etish.
- **Avtomatlashtirilgan tizimlar va texnologiyalarni joriy qilish** orqali vaqt va resurslarni tejash.
- **Xalqaro tajribalarni o'rganish** va xalqaro standartlarga moslashish.
- **Tahliliy va strategik hisob ko'nikmalarini rivojlantirish** orqali hisobotni qaror qabul qilishga xizmat qiluvchi vositaga aylantirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ergasheva Sh.T., Abdusalomova N.B. “Boshqaruv hisobi” Darslik. – T.: “Iqtisodiyot”, 2020 – 179 b.
2. Zokirovna, I. Z. (2022). Iqtisodiy islohotning hozirgi bosqichida buxgalteriya hisobi tizimining holatini baholash muammolari. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 147-154.
3. Ibragimova, Z. (2021). Buxgalteriya hisobi tizimining holati va uning faoliyatini baholash. Scientific progress, 2(2), 811-815.
4. Kurbonova, S. A. (2021). Mahsulot tannarxi hisobiga olishda boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari. Scientific progress, 2(8), 603-607.
5. Ибрагимова, З. (2023). Dunyoning iqtisodiy rivojlangan masmlakatlarining boshqaruv tahlilini tashkil etish va ularni tadbiq etish tajribasi. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5)